
Tuman hokimining navbatdagi qabuli o'tkazildi

Qo'shtepa tuman Xalq qabulxonasida tuman hokimi Ilyosbek Novikovning navbatdagi qabuli o'tkazildi.

Unda tumandagi barcha mutasaddi korxonalar va tashkilotlardan mas'ul vakillar ishtirok etishdi. Fuqarolar o'z masalalari yuzasidan bevosita tuman hokimiga murojaat qilishdi.



Qabul davomida 30 ga yaqin fuqarolardan 27 ta turli mazmundagi murojaatlar kelib tushdi.

Murojaatlarning aksariyat qismini, dehqonchilik uchun yer ajratish, uy-joy, moddiy yordam va nafaqa puli olish, bank, bandlik, tadbirkorlik bilan bog'liq murojaatlar tashkil etmoqda.



Ushbu murojaatlar yuzasidan ayrim fuqarolarga huquqiy tushuntirish berildi. Qolganlari esa qonunchilikda belgilangan muddatlarda o'rganib, chora ko'rish uchun tegishli tashkilot va idoralarga yuborilib, ijrosi nazoratga olindi.



2020-07-01 13:26:10